



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING
BUYRUG‘I

2023-2024-o‘quv yilida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida
o‘quvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish
to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirining 2008-yil 4-martdagi (Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 20-martda 1778-son bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan) “Umumiy o‘rta ta’lim oluvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” nizomi asosida umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2023-2024-o‘quv yilida o‘quvchilarning yakuniy attestatsiyasini tashkil etish va o‘tkazish maqsadida **buyuraman**:

1. Quyidagilar:

yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkaziladigan fanlar ro‘yxati va imtihon o‘tkazish shakllari 1-ilovaga muvofiq;

xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxati 2-ilovaga muvofiq;

2. Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) 2024-yilning 25-martiga qadar:

yakuniy attestatsiya o‘tkaziladigan fanlar bo‘yicha topshiriqlar spetsifikatsiyasini ishlab chiqish va tasdiqlash;

ishlab chiqilgan fanlar spetsifikatsiyasi asosida yakuniy attestatsiya o‘tkaziladigan fanlar (og‘zaki va yozma) savollarini ishlab chiqish, ekspertizadan o‘tkazish;

umumiy o‘rta ta’lim maktablari va Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi tizimidagi maktab va maktab-internatlarining bitiruvchi sinf o‘quvchilari uchun imtihon materiallarini bazasini hamda baholash mezonlarini tayyorlash;

imtihon materiallarning bazasini ta’lim beriladigan barcha tillarga tarjima qilish uchun Respublika ta’lim markaziga taqdim etish;

ishlab chiqilgan nazorat materiallari asosida imtihon variantlarini shakllantirish vazifalari yuklansin.

3. Respublika ta’lim markazi (Sh.Xudaykulov) 2024-yilning 5-apreliga qadar:

taqdim etilgan imtihon materiallari bazasini ta’lim beriladigan barcha tillarga tarjima qilish va ekspertizadan o‘tkazish;

ko‘zi ojiz, zaif ko‘ruvchi, kar, zaif eshituvchi hamda aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining bitiruvchi sinf o‘quvchilari

uchun ta'lim beriladigan barcha tillarda imtihon materiallarining bazasini hamda baholash mezonlarini tayyorlash;

aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktablar va maktab-internatlarining bitiruvchi sinflari o'quvchilari uchun Texnologiya fanidan imtihon o'tkazish bo'yicha tegishli tavsiya va mezonlar ishlab chiqish vazifalari yuklatilsin.

4. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova), Respublika ta'lim markazi (Sh.Xudaykulov) yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon materiallarining bazasini tayyorlashda kreativ va mantiqiy fikrlashga yo'naltirilgan topshiriqlar kiritilishini inobatga olsin.

5. Belgilansinki:

umumta'lim fanini bilish darajasi to'g'risida davlat namunasidagi sertifikat hamda 2-ilovada keltirilgan chet tili fanlari bo'yicha kamida B1 darajadagi milliy yoki unga tenglashtirilgan mos darajadagi xalqaro tan olingan sertifikatga ega bo'lgan o'quvchilar imtihondan muayyan fandan ozod qilinadi;

tegishli fanlar bo'yicha, yakuniy davlat attestatsiyasi o'tkazilishi belgilangan kundan bir kun oldin, Ishchi guruh tomonidan qur'a tashlash yo'li bilan (yozma shaklda o'tkaziladigan fanlar bo'yicha) shakllantirilgan variantlar orasidan 2 ta variant tanlanadi;

tanlangan 2 ta imtihon variantlari vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi va ushbu variantlar asosida respublika bo'yicha barcha bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasini topshiradi.

6. Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining davlat ta'lim standartlari asosida egallashi lozim bo'lgan malaka talablariga muvofiq bilimlarini sinovdan o'tkazish maqsadida 9- va 11-sinflar uchun yakuniy (bitiruv) nazorat imtihonlari (keyingi o'rinlarda — imtihonlar) 1-ilovada keltirilgan fanlardan tashkil etiladi.

7. Imtihonlar 2024-yil 26-maydan 15-iyungacha amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin (Jismoniy tarbiya fani bundan mustasno).

8. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 9-sinf o'quvchilari uchun Jismoniy tarbiya fanidan imtihonlar 2024-yil 1-6-may kunlari malakali tibbiyot xodimlarining

nazorati ostida o'tkazilsin (jismoniy yoki psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab, maktab-internatlar hamda skolioz bilan kasallangan bolalar uchun sanatoriy turidagi maktab-internatlar bundan mustasno).

9. Ko'zi ojiz, zaif ko'ruvchi va tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda imtihonlar umumta'lim muassasalariga qo'yilgan talablar asosida o'tkazilsin (Jismoniy tarbiya fani bundan mustasno).

10. Kar, zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarida imtihonlar Ona tili va adabiyot fanidan bayon va Matematika fanidan yozma nazorat ishi shaklida amalga oshirilsin.

11. Aqli zaif bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarda faqat Texnologiya fani bo'yicha imtihonlar o'tkazilsin

hamda imtihonlarni o'tkazish muddati maktabning Pedagogik kengashi tomonidan belgilansin.

12. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri, Toshkent shahar va viloyatlar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari boshliqlariga:

imtihonlarga puxta tayyorgarlik ko'rishlari uchun sharoitlar yaratish;

imtihonlari shaffof, adolatli, xolis o'tkazilishini ta'minlash, imtihonlarning o'z muddatlarida o'tkazilishini nazoratga olish.

tabiiy va texnogen sabablarga ko'ra belgilangan muddatlarda imtihon o'tkazilishining imkoniyati bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida imtihonlarni tuman (shahar) maktabgacha va maktab bo'limlari bilan kelishgan holda boshqa kunda o'tkazishga ruxsat berilganligini ma'lumot va ijro uchun qabul qilish;

imtihonlarning natijalari, ularni o'tkazish yuzasidan taklif va mulohazalarni umumlashtirib, 2024-yilning 3-iyuliga qadar Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markaziga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

13. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi (D.Davidova) 2024-yilning 1-avgustiga qadar bitiruv sinflarida yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotni Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamentiga taqdim etsin.

14. Ta'lim sifatini baholash, litsenziyalash va akkreditatsiyalash departamenti 2024-yil 8-aprelga qadar bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasiga tayyorlanishlari uchun ishlab chiqilgan fanlar spetsifikatsiyasini va imtihon materiallari hamda baholash mezonlarini Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi rasmiy veb-saytida e'lon qilish uchun Axborot xizmatiga taqdim etsin.

15. Axborot xizmati (D.Sobirova) Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va raqamlashtirish boshqarmasi (R.Musurmonov) bilan birgalikda taqdim etilgan fanlar spetsifikatsiyasini va imtihon materiallari hamda baholash mezonlarini 2024-yil 10-aprelga qadar vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilsin va joylashtirsin.

16. Ushbu buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazirning birinchi o'rinbosari U.Sharifxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Vazir



X.Umarova

Toshkent sh.,
2024-yil 20-mart,
87-son

Yakuniy nazorat imtihonlari o‘tkaziladigan fanlarning ro‘yxati va imtihon o‘tkazish shakllari

9-sinf uchun	
Ona tili va adabiyot	yozma
Davlat tili (<i>ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lmagan sinflar uchun</i>)	yozma
Matematika	yozma
O‘zbekiston tarixi	yozma/og‘zaki
Jismoniy tarbiya	amaliy
Yakuniy nazorat	
11-sinf uchun	
Ona tili va adabiyot	yozma (insho)
Matematika	yozma
O‘zbek tili (<i>ta’lim o‘zbek tilida olib borilmaydigan umumiy o‘rta ta’lim muassasalari uchun</i>)/Ta’lim muassasasi tanlovi**	yozma va og‘zaki
Chet tili	yozma/og‘zaki
O‘zbekiston tarixi	yozma/og‘zaki
*O‘quvchining tanlovi bo‘yicha: <ul style="list-style-type: none">• Kimyo• Fizika• Davlat huquq asoslari• Geografiya	yozma

*Izoh: * 11-sinfda har bir o‘quvchining ixtiyoriy tanloviga ko‘ra tanlov (variantiv) fanlaridan biri yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazilishidan bir oy oldin o‘quvchining arizasiga ko‘ra tanlanadi;*

*** 11-sinfda har bir o‘quvchining ixtiyoriy tanlovi va ota-onalarning fikrlariga asoslanib tanlov (variantiv) fanlaridan biri yakuniy davlat attestatsiyasi o‘tkazilishidan bir oy oldin ta’lim muassasasi tomonidan tanlanadi;*

Tanlov fani majburiy fanlardan tashqari taklif etilgan fanlar orasidan tanlanadi.

9-sinflar uchun Jismoniy tarbiya fanidan 1-6-may, Ona tili va adabiyot fanidan — 27-may, Matematika fanidan — 30-may kunlari bitiruv imtihonlari o‘tkaziladi;

11-sinflar uchun Ona tili va adabiyot fanidan — 29-may, Matematika fanidan — 1-iyun kunlari bitiruv imtihonlari o‘tkaziladi.

**Xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi xalqaro tan olingan sertifikatlar
RO'YXATI**

T/r	Xalqaro tan olingan sertifikatlar nomi
Ingliz tili bo'yicha	
1.	International English Language Testing System (IELTS)
2.	Test of English as a Foreign Language (TOEFL IBT)
3.	Test of English as a Foreign Language (TOEFL ITP)
4.	Cambridge Assessment English
Fransuz tili bo'yicha	
5.	Diplôme d'Etudes en Langue Française (DEL F)
6.	Diplôme Approfondi de Langue Française (DALF)
7.	Test de Connaissance du Français (TCF)
Nemis tili bo'yicha	
8.	Goethe-Zertifikat
9.	Deutsches Sprachdiplom (DSD I)
10.	Deutsches Sprachdiplom (DSD II)
11.	Test Deutsch als Fremdsprache (Test DAF)
Ispan tili bo'yicha	
12.	Diplomas de Español como Lengua Extranjera (DELE)
13.	Servicio Internacional de Evaluación de la Lengua Española (SIELE)
Italyan tili bo'yicha	
14.	Certificato di Conoscenza della Lingua Italiana (CELI)
15.	Certificazione di Italiano come Lingua Straniera (CILS)
16.	Accademia Italiana di Lingua (AIL)
*Rus tili bo'yicha	
17.	Test of Russian as a Foreign Language (TORFL)
18.	Тест по русскому языку как иностранный (ТРКИ)
Arab tili bo'yicha	
19.	The Arabic Language Proficiency Test, Arabic Proficiency Test (ALPT, APT, E-TOAFL American Council on the Teaching of Foreign Languages (ACTFL)
20.	AT Tanal Al Arabi
Xitoy tili bo'yicha	
21.	Hanyu Shuiping Kaoshi (HSK)
Yapon tili bo'yicha	
22.	Japanese Language Proficiency Test (JLPT)
Koreys tili bo'yicha	
23.	Test of Proficiency in Korean (TOPIK I)
24.	Test of Proficiency in Korean (TOPIK II)
Turk tili bo'yicha	
25.	Türkçe Yeterlik Sinavi (TYS)

**Izoh: Ta'lim tili rus tili bo'lmagan ta'lim muassasalari uchun*

Bundan tashqari: davlat ta'lim tashkilotlari tomonidan berilgan davlat ta'lim standartlariga mos keluvchi o'quvchining bilimni tasdiqlovchi (B va undan yuqori) sertifikatga ega o'quvchilar imtihon belgilangan mazkur fandan ozod etiladi.